



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

TOJ-MAHALNING MADANIY, TARIXIY VA TABIIY MEROS SIFATIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Abdulxay Gulchexra Urazaliyevna
Guliston davlat universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Toj-Mahalning jahon madaniy merosidagi o'rni, uning tarixiy shakllanish jarayoni, me'moriy xususiyatlari hamda madaniy-tarixiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda Toj-Mahalning qurilish tarixi, Shoh Jahon va Mumtoz Mahal bilan bog'liq tarixiy voqealar, majmuaning me'moriy yechimlari, Qur'on oyatlari bilan bezatilgan kaligrafik kompozitsiyalari, inkrustatsiya san'ati va simmetriya tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, yodgorlikning geologik, ekologik va muhandislik jihatlarini ham ko'rib chiqilib, uning UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Toj-Mahal, Shoh Jahon, Mumtoz Mahal, Mug'ullar imperiyasi, madaniy meros, me'morchilik, UNESCO, kaligrafiya, inkrustatsiya, simmetriya, marvarid me'morchiligi, tarixiy yodgorlik.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ТАДЖ-МАХАЛА КАК КУЛЬТУРНОГО, ИСТОРИЧЕСКОГО И ПРИРОДНОГО НАСЛЕДИЯ

Абдулхай Гулчехра Уразалиевна
Гулистанский государственный университет, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются место и значение Тадж-Махала в мировом культурном наследии, история его создания, архитектурные особенности и историко-культурная ценность. Рассматриваются история строительства мавзолея, события, связанные с Шах-Джаханом и Мумтаз-Махал, архитектурные решения комплекса, каллиграфические композиции с кораническими текстами, искусство инкрустации и принципы симметрии. Особое внимание уделено геологическим, экологическим и инженерным аспектам памятника, а также его значению как объекта Всемирного наследия ЮНЕСКО.

Ключевые слова: Тадж-Махал, Шах-Джахан, Мумтаз-Махал, Империя Великих Моголов, культурное наследие, архитектура, ЮНЕСКО, каллиграфия, инкрустация, симметрия, исторический памятник, мировое наследие.

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE TAJ MAHAL AS A CULTURAL, HISTORICAL AND NATURAL HERITAGE

Abdulxay Gulchexra Urazaliyevna
Gulistan State University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the role and significance of the Taj Mahal as a world cultural heritage monument, focusing on its historical development, architectural features, and cultural value. The study explores the history of its construction, the historical relationship between Shah Jahan and Mumtaz Mahal, the architectural design of the complex, Quranic calligraphic inscriptions, decorative inlay techniques, and principles of symmetry. Particular attention is given to the geological, environmental, and engineering aspects of the monument, as well as its status as a UNESCO World Heritage Site.

Keywords: Taj Mahal, Shah Jahan, Mumtaz Mahal, Mughal Empire, cultural heritage, architecture, UNESCO, calligraphy, stone inlay, symmetry, historical monument, world heritage.

Jahon sivilizatsiyasi tarixida ayrim me'moriy yodgorliklar nafaqat o'z davrining san'at va me'morchilik yutuqlarini aks ettiradi, balki insoniyatning madaniy, diniy va tarixiy qadriyatlarini mujassamlashtirgan noyob meros namunalari sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday yodgorliklardan biri Hindistonning Agra shahrida joylashgan Toj-Mahal majmuasidir. Ushbu inshoot o'zining betakror me'moriy qiyofasi, mukammal simmetriyasi, nafis bezaklari hamda tarixiy mazmuni bilan dunyo miqyosida mashhur bo'lib, insoniyatning eng buyuk me'moriy obidalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Toj-Mahal XVII asrda Boburiylar imperiyasi hukmdori Shoh Jahon tomonidan rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan. Mazkur yodgorlik nafaqat muhabbat va sadoqat timsoli, balki o'sha davrning siyosiy, madaniy va diniy qarashlarini o'zida aks ettirgan murakkab tarixiy majmua hisoblanadi. Uning qurilishida turli mamlakatlardan jalb qilingan me'morlar, muhandislar va hunarmandlarning ishtirok etishi Sharq va G'arb me'morchiligi an'analariining o'zaro uyg'unlashuviga imkon yaratgan.

Bugungi kunda Toj-Mahal UNESCOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, har yili millionlab sayyohlar va tadqiqotchilarni o'ziga jalb etmoqda. Yodgorlikning me'moriy yechimlari, Qur'on oyatlari bilan bezatilgan kaligrafik kompozitsiyalari, qimmatbaho toshlar yordamida yaratilgan inkrustatsiyalari hamda murakkab muhandislik texnologiyalari ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba vazifasini o'tamoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Toj-Mahalning madaniy, tarixiy va me'moriy meros sifatidagi o'rni hamda ahamiyatini yoritish, uning qurilish tarixi, me'moriy xususiyatlari, diniy-ma'naviy mazmuni va jahon madaniy merosidagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, yodgorlikning zamonaviy saqlash va restavratsiya jarayonlari hamda uning global madaniy meros sifatidagi ahamiyati yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Toj-Mahalning tarixi, me'moriy xususiyatlari va jahon madaniy merosidagi o'rni ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlarda asosan yodgorlikning qurilish tarixi, me'moriy yechimlari, diniy-ma'naviy mazmuni hamda madaniy meros sifatidagi ahamiyati yoritilgan.

Toj-Mahalga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlardan biri E. Kochning *The Complete Taj Mahal and the Riverfront Gardens of Agra* asari [1] hisoblanadi. Muallif yodgorlikning qurilish tarixi, me'moriy tarkibi va Agra shahrining daryo bo'yidagi bog'lari bilan bog'liq rivojlanish jarayonlarini batafsil tahlil qilgan. Asarda Toj-Mahalning shaharozlik tizimidagi o'rni, majmuaning rejalashtirilishi hamda uning Boburiylar davri me'morchiligining eng yuksak namunasi sifatidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

C. B. Asherning *Architecture of Mughal India* nomli tadqiqoti [2] Boburiylar davri me'morchiligini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif Toj-Mahalni Boburiylar me'morchilik an'analariining takomillashgan bosqichi sifatida baholab, unda fors, turkiy va hind me'moriy unsurlarining uyg'unlashganligini ko'rsatadi. Asarda majmuaning simmetrik tuzilishi, bezak san'ati va monumental me'moriy yechimlari chuqur tahlil etilgan.

UNESCO World Heritage Centre tomonidan nashr etilgan *Taj Mahal* materiallarida [3] yodgorlikning jahon madaniy merosi sifatidagi maqomi, uni muhofaza qilish va restavratsiya qilish masalalari yoritilgan. Ushbu manbada Toj-Mahalning insoniyat madaniy merosidagi o'rni, uning universal tarixiy va estetik qiymati hamda zamonaviy saqlash mexanizmlari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

R. Nathning *Taj Mahal and Its Incarnation* asarida [4] Toj-Mahalning yaratilish tarixi, qurilish texnologiyalari hamda me'moriy kompozitsiyasi keng tadqiq etilgan. Muallif yodgorlikning bunyod etilishida qatnashgan ustalar, qurilish materiallari va bezak elementlari haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlarni keltiradi. Shuningdek, asarda Toj-Mahalning ramziy va ma'naviy mazmuniga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Mahalliy adabiyotlar orasida "Toj Mahal – muhabbat timsoli bo'lgan go'zal maqbara" nomli maqola [5] alohida ahamiyatga ega. Unda Toj-Mahalning bunyod etilish sabablari, Shoh Jahon va Mumtoz Mahal o'rtasidagi munosabatlar hamda yodgorlikning muhabbat va sadoqat timsoli sifatidagi o'rni yoritilgan. J. Sobirov va M. Abdullayevlarning "Bobur va boburiylarning Hindistondagi me'morchiligi" nomli maqolasida [6] Boburiylar davri me'morchiligining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Mualliflar Toj-Mahalni Boburiylar me'morchilik maktabining eng mukammal namunalaridan biri sifatida baholab, uning qurilishida Sharq me'morchiligi an'analariining mujassamlashganligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, "UNESCOning Butunjahon merosi obyektlari haqida ma'lumotlar to'plami"da [7] Toj-Mahalning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilish sabablari, uning madaniy va tarixiy ahamiyati hamda xalqaro miqyosdagi muhofaza tadbirlari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Toj-Mahal asosan me'moriy va tarixiy yodgorlik sifatida keng o'rganilgan bo'lsa-da, uning madaniy, diniy va muhandislik merosi sifatidagi kompleks ahamiyatini tadqiq etish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni o'zaro bog'liqlikda yoritishga qaratilganligi bilan avvalgi tadqiqotlardan farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslanildi. Toj-Mahalning madaniy, tarixiy va me'moriy meros sifatidagi o'rnini yoritishda tarixiy-qiyosiy, tahliliy hamda tavsifiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida Boburiylar davri tarixi, me'morchilik san'ati va madaniy meros masalalariga oid ilmiy adabiyotlar, UNESCO materiallari hamda zamonaviy tadqiqotlar o'rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, Toj-Mahalning me'moriy tuzilishi, qurilish texnologiyalari, bezak san'ati va madaniy ahamiyati kompleks yondashuv asosida tadqiq etildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, yodgorlikning jahon madaniy merosidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Toj-Mahal insoniyat tarixida yaratilgan eng buyuk me'moriy yodgorliklardan biri sifatida nafaqat Hindiston, balki butun jahon madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu yodgorlikning tarixiy, madaniy va me'moriy ahamiyatini tadqiq etish jarayonida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar uning ko'p qirrali mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, Toj-Mahal oddiy maqbara emas, balki XVII asr Boburiylar davri siyosiy qudrati, san'at taraqqiyoti, diniy qarashlari va muhandislik yutuqlarining o'ziga xos ifodasidir.

E. Koch Toj-Mahalni Agra shahrining umumiy me'moriy-landshaft tizimi bilan bog'liq holda tahlil qilib [1], uning faqat markaziy maqbara emas, balki murakkab daryo bo'yi me'moriy majmuasining tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, majmuaning Yamuna daryosi bo'yida joylashtirilishi tasodifiy bo'lmay, Boburiylar davrida shakllangan bog'-saroy me'morchiligi an'alarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Bu holat Toj-Mahalning nafaqat me'moriy inshoot, balki tabiat va inson mehnati uyg'unligida yaratilgan madaniy landschaft namunasi ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar davomida Toj-Mahal qurilishida qo'llanilgan me'moriy yechimlar alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. C. B. Asherning qayd etishicha [2], Boburiylar me'morchiligi Markaziy Osiyo, Eron va Hindiston me'moriy an'alarining sintezi asosida shakllangan. Toj-Mahal ushbu sintezning eng mukammal namunasi bo'lib, unda fors bog'ozligi, turkiy gumbazli inshootlar hamda hind bezak san'ati elementlari uyg'unlashgan. Ayniqsa, majmuaning qat'iy simmetrik tuzilishi Boburiylar me'morchiligining eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Toj-Mahalning me'moriy kompozitsiyasida markaziy gumbaz, to'rt minora va bog' majmuasining o'zaro uyg'unligi alohida estetik ta'sir kuchiga ega. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, majmuaning barcha elementlari insonda muvozanat va mukammallik hissini uyg'otishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, Toj-Mahal Sharq me'morchiligida simmetriya va mutanosiblik tamoyillarining eng yuqori darajada namoyon bo'lgan obidalaridan biri hisoblanadi.

R. Nath tomonidan olib borilgan tadqiqotlar [4] yodgorlikning qurilish texnologiyalarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif qurilishda minglab ustalar va hunarmandlar ishtirok etganligini, turli hududlardan keltirilgan qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlardan foydalanilganligini ta'kidlaydi. Bu esa Boburiylar imperiyasining iqtisodiy salohiyati va xalqaro savdo aloqalarining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Qurilish materiallarining Eron, Afg'oniston, Tibet, Xitoy va boshqa hududlardan olib kelingani Toj-Mahalning o'z davridagi global madaniy almashinuv mahsuli ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toj-Mahalning san'at asari sifatidagi ahamiyati uning bezak tizimida ham namoyon bo'ladi. Inkrustatsiya usulida ishlangan naqshlar, marmarga joylashtirilgan qimmatbaho toshlar va Qur'on oyatlaridan tashkil topgan kaligrafik kompozitsiyalar yodgorlikning estetik qimmatini yanada oshirgan. Ayniqsa, arab yozuvining suls uslubida bajarilgan namunalarini diniy mazmun bilan bir qatorda badiiy mukammallikni ham ifodalaydi. Bu esa Toj-Mahalni islom san'ati tarixining noyob namunalaridan biriga aylantirgan.

Yodgorlikning tarixiy ahamiyatini baholashda Shoh Jahon va Mumtoz Mahal bilan bog'liq voqealar alohida o'rin tutadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, majmua imperatorning sevimli rafiqasi xotirasiga bag'ishlab qurilgan bo'lib, muhabbat va sadoqat ramzi sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar Toj-Mahalni faqat romantik timsol sifatida emas, balki Boburiylar davlatining siyosiy qudrati va hukmdor legitimligining ramzi sifatida ham baholamoqda. Shu sababli yodgorlikning mazmuni ko'p qatlamli bo'lib, unda shaxsiy hissiyotlar bilan bir qatorda siyosiy va mafkuraviy g'oyalar ham mujassamlashgan.

UNESCO ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Toj-Mahalning universal tarixiy va madaniy qiymatga ega ekanligini tasdiqlaydi. 1983-yilda yodgorlikning Butunjahon merosi ro'yxatiga

kiritilishi uning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini yanada oshirdi. UNESCO hujjatlarida [7] Toj-Mahal insoniyat ijodiy dahosining yorqin namunasi sifatida baholanadi. Ushbu maqom yodgorlikni saqlash va muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Toj-Mahalning bugungi kungacha yaxshi saqlanib qolishida yodgorlikni muntazam ravishda muhofaza qilish va restavratsiya qilish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, majmuaning asosiy qurilish materiali hisoblangan oq marmar o'zining estetik jozibadorligi bilan ajralib tursa-da, tashqi muhit ta'siriga nisbatan sezgir hisoblanadi.

Agar fotogalereya materiallari tahlil qilinsa, toza va ifloslangan marmar o'rtasidagi sezilarli farqni kuzatish mumkin. Toj-Mahalning asosiy binosi Hindistonning yuqori sifatli oq marmaridan bunyod etilgan bo'lib, ushbu marmarning muhim xususiyatlaridan biri uning g'ovaksiz tuzilishga ega ekanligidir. Biroq marmarning oppoq rangi atmosfera changlari va ekologik omillar ta'sirida tez ifloslanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, sanoat chiqindilari, transport vositalaridan ajraladigan gazlar hamda havoning umumiy ifloslanishi marmar yuzasining sarg'ayishiga olib keluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Yomg'ir mavsumida marmar qisman tabiiy ravishda tozalansa-da, yuzaga yopishib qolgan mayda zarrachalar vaqt o'tishi bilan uning rangiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli Toj-Mahal majmuasida davriy ravishda maxsus tozalash ishlari amalga oshiriladi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, marmar qoplamalarni saqlash maqsadida taxminan har 15–20 yilda keng ko'lamli restavratsiya va tozalash tadbirlari o'tkaziladi. Ushbu jarayonlar Hindiston Arxeologik xizmati tomonidan nazorat qilinib, yodgorlikning asl qiyofasini saqlab qolishga qaratilgan.

Toj-Mahalni tozalashda qo'llaniladigan usullar ham ilmiy va amaliy jihatdan katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, maxsus tabiiy gil turi – multani mitti qo'llaniladi. Mazkur modda Hindistonda qadimdan kosmetik vosita sifatida ham foydalanib kelingan bo'lib, tarkibiga kurkuma, asal, qatiq yoki sut qo'shib tayyorlanadi. Tozalash jarayonida ushbu gil pastasi marmar yuzasiga surtiladi va bir necha kun davomida qoldiriladi. Keyinchalik u suv yordamida yuvib tashlanadi. Natijada marmar yuzasidagi iflos qatlamlar bartaraf etilib, uning tabiiy oppoq rangi tiklanadi.

Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, Toj-Mahalni saqlash jarayonida zamonaviy restavratsiya texnologiyalari bilan bir qatorda an'anaviy usullardan ham samarali foydalanilmoqda. Turistlarning ko'pligi, atmosfera changlari va ekologik omillar sababli yuzaga keladigan ifloslanishlar "gil terapiyasi" deb ataluvchi ushbu usul orqali bartaraf etiladi. Bu esa Toj-Mahalning nafaqat tarixiy va madaniy meros obyekti, balki doimiy ilmiy kuzatuv va muhofazani talab qiladigan noyob me'moriy inshoot ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Toj-Mahalning jahon miqyosida mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan omillardan biri uning yaratilish tarixi bilan bog'liqdir. Mazkur yodgorlik nafaqat me'moriy mukammalligi, balki insoniy tuyg'ular, sadoqat va muhabbat bilan bog'liq tarixiy voqealarni o'zida aks ettirishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Toj-Mahalning bunyod etilish tarixi Boburiylar sulolasi vakili shahzoda Xurram, keyinchalik Shoh Jahon nomi bilan mashhur bo'lgan hukmdor va uning sevimli rafiqasi Arjuman Bano Begum, ya'ni Mumtoz Mahal hayoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Mumtoz Mahal Boburiylar saroyidagi nufuzli amaldorlar oilasidan chiqqan, yuksak saviyali va bilimli ayol bo'lgan. Shoh Jahon va Mumtoz Mahalning oilaviy hayoti qariyb o'n to'qqiz yil davom etgan bo'lib, ular o'n to'rt nafar farzand ko'rganlar. Biroq farzandlarning faqat yetti nafari voyaga yetgan. 1631-yilda Mumtoz Mahal navbatdagi farzandini dunyoga keltirish jarayonida vafot etadi. Rivoyatlarga ko'ra, u vafoti arafasida turmush o'rtog'idan farzandlariga g'amxo'rlik qilishni va ularning muhabbatini abadiylashtiruvchi yodgorlik yaratishni so'ragan.

Mumtoz Mahalning vafoti Shoh Jahon hayotida chuqur iz qoldirgan. Hukmdor o'z rafiqasi xotirasini abadiylashtirish maqsadida mislsiz me'moriy majmua qurishga qaror qiladi. Natijada dunyo tarixidagi eng mashhur maqbaralardan biri bo'lgan Toj-Mahal loyihasi yuzaga keladi. Manbalarda qayd etilishicha, majmua loyihasini yaratishda o'sha davrning eng mohir me'morlari va muhandislari ishtirok etgan. Loyiha konsepsiyasida islom manbalarida tasvirlangan jannat bog'lari va mukammal me'moriy uyg'unlik g'oyalari asos qilib olingan.

Toj-Mahal qurilishi 1631-yilda boshlangan bo'lib, taxminan yigirma ikki yil davom etgan va 1653-yilda yakunlangan. Qurilish ishlarida yigirma mingga yaqin usta, hunarmand va mehnatkashlar qatnashgan. Majmua uchun asosiy qurilish materiali hisoblangan oq marmar Rajastan hududidagi Makrana konlaridan keltirilgan. Marmar bloklari uzoq masofalardan fillar yordamida tashilgan, maxsus ishlov berilgan va murakkab muhandislik usullari orqali inshoot devorlariga o'rnatilgan.

Toj-Mahalning tarixiy va madaniy ahamiyati xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan. Xususan,

1983-yilda u UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Mazkur maqom yodgorlikning insoniyat uchun noyob universal qadriyatga ega ekanligini tasdiqladi. Shuningdek, 2007-yilda o'tkazilgan xalqaro so'rov natijalariga ko'ra, Toj-Mahal dunyoning yangi yetti mo'jzasidan biri sifatida tan olindi. Bu esa uning global turizm va madaniy meros tizimidagi mavqeini yanada mustahkamladi.

Toj-Mahal tarixini Boburiylar imperiyasi taraqqiyotidan alohida holda tasavvur etib bo'lmaydi. Tadqiqotchilar Boburiylar davlatining rivojlanish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratadilar. Birinchi bosqich 1526–1707-yillarni qamrab olib, imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalish davri hisoblanadi. Bu davrda Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzeb kabi hukmdorlar faoliyat yuritgan. Aynan shu davr Boburiylar me'morchiligi va madaniyatining eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan bosqichi sifatida tavsiflanadi. Biroq Avrangzeb vafotidan keyin imperiya asta-sekin zaiflasha boshladi. Markaziy hokimiyatning susayishi natijasida hududiy hukmdorlar mustaqillikka intildilar, siyosiy parokandalik kuchaydi va davlatning iqtisodiy qudrati pasaydi. Natijada Boburiylar davlatining siyosiy ta'siri tobora kamayib, hokimiyat Britaniya Ost-Indiya kompaniyasining nazoratiga o'ta boshladi. 1857-yildagi yirik qo'zg'olon Boburiylar sulolasi hokimiyatini tiklashga qaratilgan so'nggi urinish bo'ldi. Biroq qo'zg'olon mag'lubiyat bilan yakunlandi va Bahodur Shoh Zafar hokimiyatdan chetlatilgach, Boburiylar sulolasi amalda o'z faoliyatini to'xtatdi.

Shu tariqa, Toj-Mahal Boburiylar davrining siyosiy qudrati, me'moriy salohiyati va madaniy yuksalishini o'zida mujassamlashtirgan noyob tarixiy yodgorlik sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat muhabbat va sadoqat ramzi, balki butun bir davrning siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini aks ettiruvchi bebaho meros obyekti hisoblanadi.

Toj-Mahalning jahon madaniy merosidagi o'rni uning nafaqat me'moriy mukammalligi, balki o'zida mujassam etgan tarixiy, diniy va ma'naviy mazmun bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan mazkur yodgorlik muhabbat, ayriliq, siyosiy tarix va yuksak me'moriy mahoratning o'ziga xos ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda Toj-Mahal faol diniy obyekt maqomini saqlab qolgan bo'lsa-da, unda ibodat marosimlari cheklangan tartibda amalga oshiriladi. Xususan, juma kunlari Agra shahrida istiqomat qiluvchi musulmonlarga jamoat namozini ado etish uchun ruxsat beriladi, boshqa kunlarda esa majmua asosan tarixiy-madaniy obyekt sifatida faoliyat yuritadi. Bu holat yodgorlikning diniy va madaniy vazifalari o'rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, Mumtoz Mahalning dafn etilishi bilan bog'liq ayrim tarixiy ma'lumotlar Toj-Mahal qurilishi jarayonining murakkabligini yanada yaqqol namoyon etadi. Dastlab malika vafot etgan hududda vaqtinchalik dafn etilgan bo'lib, keyinchalik maqbara qurilishi uchun joy tanlangach, uning jasadi Agra shahriga keltirilgan. Biroq qoldiqlar darhol yakuniy dafn joyiga qo'yilmagan. Qurilishning eng muhim bosqichlaridan biri bo'lgan poydevor ishlari yakunlangunga qadar Mumtoz Mahalning jasadi maxsus kamerada saqlangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bu jarayon qariyb to'qqiz yil davom etgan.

Mazkur holat Toj-Mahalning muhandislik jihatlarini ham alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Inshootning poydevori odatiy qurilish usullaridan farq qilgan bo'lib, dastlab murakkab tayanch tizimi bunyod etilgan, undan so'ng qizil qumtosh platforma va nihoyat oq marmar qoplamali asosiy platforma qurilgan. Shu sababli Toj-Mahalning uzoq asrlar davomida saqlanib qolishi uning me'moriy yechimlari bilan bir qatorda, puxta muhandislik hisob-kitoblari natijasi ekanligini ko'rsatadi.

Toj-Mahalning xalqaro nufuzi uning dunyoning eng mashhur tarixiy yodgorliklari qatoridan o'rin olganligida ham namoyon bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda u insoniyat tomonidan yaratilgan eng muhim me'moriy obidalardan biri sifatida e'tirof etilib, ko'pincha dunyoning yangi yetti mo'jzasi tarkibida tilga olinadi. Bu esa yodgorlikning global turizm, madaniyat va tarixiy meros tizimidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Toj-Mahal me'morchiligini o'rganishda uning qurilish texnologiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Oqartirilgan marmar o'zining katta og'irligi sababli butunlay yaxlit konstruksiya sifatida qo'llanilishi mumkin emas edi. Shu sababli me'morlar ichki qismda g'ishtli tayanch konstruksiyadan foydalanib, tashqi yuzalarni marmar bilan qoplash usulini qo'llaganlar. Natijada inshoot ham mustahkamlik, ham estetik mukammallik talablariga javob bera olgan.

Yodgorlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri uning diniy bezak tizimidir. Majmuaning fasadlari va darvozalarida Qur'oni Karim oyatlaridan keng foydalanilgan. Xususan, "Yosin" surasi, "Ar-Rahmon", "Al-Fajr" va "Al-Baqara" suralaridan olingan oyatlar maqbara devorlariga joylashtirilgan. Islom an'analarida marhumlar xotirasini yod etish va ular uchun duo qilish muhim o'rin tutgani sababli ushbu oyatlar Toj-Mahalning ma'naviy mohiyatini yanada boyitgan. Natijada yodgorlik nafaqat me'moriy

obyekt, balki diniy-ma'rifiy mazmunga ega muqaddas maskan sifatida ham shakllangan.

Kaligrafik yozuvlarning bajarilish texnikasi ham alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, devorlardagi qora yozuvlar oddiy bo'yoq yordamida emas, balki maxsus qora toshlardan tayyorlangan harflarni marmarga inkrustatsiya qilish yo'li bilan yaratilgan. Yozuvlarda arab kaligrafiyasining suls uslubi qo'llanilgan bo'lib, u Yaqin Sharq va islom dunyosida eng nafis va murakkab yozuv turlaridan biri hisoblanadi. Mazkur uslubning qo'llanilishi Toj-Mahalning diniy va badiiy ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

Shuningdek, majmua bezaklarida qo'llanilgan inkrustatsiya va o'ymakorlik san'ati ham o'z davrining eng yuqori hunarmandchilik yutuqlaridan biri sifatida baholanadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ushbu texnologiyalar Eron va qo'shni hududlardan kirib kelgan bo'lib, mahalliy hind ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan. Oqartirilgan marmar yuzasiga dastlab vaqtinchalik naqshlar tushirilgan, keyinchalik maxsus asboblarda yordamida chuqurchalar o'yilib, ularga qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar joylashtirilgan. Ushbu jarayon nihoyatda katta mahorat va sabr talab qilgan. Natijada yaratilgan bezaklar bugungi kunda ham o'zining nafisligi va mukammalligi bilan tadqiqotchilar hamda sayyohlarni hayratga solib kelmoqda.

Shu tariqa, Toj-Mahal nafaqat muhabbat ramzi sifatida, balki islom madaniyati, Sharq me'morchiligi, muhandislik tafakkuri va amaliy san'atning eng yuksak yutuqlarini mujassamlashtirgan noyob tarixiy-madaniy meros obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Toj-Mahalning me'moriy va badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri unda qo'llanilgan bezak san'ati va qurilish texnologiyalarining mukammalligidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inkrustatsiya ishlari nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, har bir bezak elementi katta mahorat va sabr-toqat bilan yaratilgan. Naqsh uchun mo'ljallangan toshlarga dastlab maxsus shakl berilgan, so'ngra ular marmar yuzasida o'yilgan chuqurchalarga o'rnatilgan. Toshni mahkamlash uchun tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan maxsus qorishma qo'llanilgan. Ushbu qorishma tarkibiga yasmiq, bug'doy, guruch, palma shakari, meva mag'zi, gil, asal va boshqa tabiiy komponentlar kiritilgan. Qorishma qurigach, yuzalar tozalangan va natijada naqshlar xuddi tasviriy san'at namunasi kabi mukammal ko'rinishga ega bo'lgan. Bezash ishlari avval yirik marmar plitalarda bajarilgan, keyinchalik tayyor panellar asosiy inshoot devorlariga o'rnatilgan. Katta hajmdagi marmar plitalarni tashish uchun fillar va ko'plab ishchi kuchidan foydalanilgan. Bu holat Toj-Mahal qurilishida o'sha davr uchun nihoyatda rivojlangan tashkiliy va texnik imkoniyatlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Majmuaning ichki tuzilishini tahlil qilish jarayonida uning simmetrik me'moriy yechimlari alohida e'tiborni tortadi. Tadqiqotchilar qayd etishicha, Toj-Mahalning deyarli barcha qismlari qat'iy simmetriya tamoyili asosida bunyod etilgan. Faqatgina qabrlarning joylashuvi ushbu qoidaga istisno hisoblanadi. Dastlab maqbara faqat Mumtoz Mahal uchun qurilganligi sababli uning ramziy qabri markaziy qismga joylashtirilgan. Keyinchalik Shoh Jahon vafotidan so'ng uning qabri markazdan chetroqqa qo'yilgan va natijada majmuaning yagona assimetrik nuqtasi vujudga kelgan. Islom dafn marosimi an'analariga muvofiq, haqiqiy qabrlar yer osti qismida joylashgan bo'lib, yuqorida ko'rinib turgan marmar sag'analar ramziy ma'noga ega. Shu tariqa maqbara uch qatlamli tuzilishga ega bo'lib, unda yer ostidagi haqiqiy dafn joyi, o'rta qavatdagi ramziy qabr va tashrif buyuruvchilar ko'radigan yuqori qism mavjud. Bu yechim diniy an'analar bilan me'moriy estetikani uyg'unlashtirishga xizmat qilgan.

Toj-Mahal tarixini Shoh Jahon va uning o'g'li Avrangzeb o'rtasidagi siyosiy munosabatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Boburiylar davlatida taxt vorisligi qat'iy ravishda to'ng'ich o'g'ilga berilmagan, aksincha, hukmdorlik uchun eng qudratli shahzoda kurash olib borgan. Natijada Avrangzeb taxt uchun kurashda g'alaba qozonib, akasi Doro Shikohni mag'lub etgan hamda otasi Shoh Jahonni Agra qal'asida uy qamog'ida saqlagan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Shoh Jahon umrining so'nggi yetti yilini Yamuna daryosi ortidan Toj-Mahalgacha qarab o'tkazgan. Bu voqea yodgorlik tarixiga yanada chuqur ma'naviy mazmun bag'ishlagan.

Tadqiqot natijalari Toj-Mahal qurilishining iqtisodiy jihatdan ham ulkan loyiha bo'lganligini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda majmua qurilishi uchun qariyb 40 million rupiy sarflangani qayd etiladi. Bu o'sha davr uchun nihoyatda katta mablag' hisoblangan. Shu bilan birga, Shoh Jahonning mashhur "Tovus taxti" bundan ham qimmatroq bo'lib, uning bezaklarida dunyoga mashhur Koh-i-Nur olmoshi ishlatilgan.

Toj-Mahal bilan bog'liq eng mashhur afsonalardan biri "Qora Toj-Mahal" haqidagi rivoyatdir. Ayrim manbalarda Shoh Jahon Yamuna daryosining qarama-qarshi qirg'og'ida qora marmardan yana bir maqbara qurishni rejalashtirgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Biroq zamonaviy tadqiqotchilar bu fikrni

afsona sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, Mehtab Bog‘ hududidagi suv havzalarida oq marmar maqbaraning tungi aks etishi qora inshoot taassurotini hosil qilgan va keyinchalik ushbu tasavvur afsonaga aylangan.

Toj-Mahalning tabiiy va geologik jihatlari ham ilmiy ahamiyatga ega. Inshoot qurilishida qo‘llanilgan marmar metamorfik jins hisoblanib, millionlab yillar davomida shakllangan ohaktosh qatlamlaridan hosil bo‘lgan. Shu sababli Toj-Mahal nafaqat tarixiy, balki geologik meros unsurlarini ham o‘zida mujassam etadi. Bundan tashqari, majmuaning poydevor qismi namlikka chidamli eben daraxti yog‘ochidan tayyorlangan tayanchlarga asoslangan. Yamuna daryosining nam muhiti ushbu yog‘ochlarning mustahkamligini saqlab turishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Majmuaning atrofidagi tarixiy landshaft ham alohida ahamiyatga ega. Toj-Mahaldan uncha uzoq bo‘lmagan masofada joylashgan Agra qal‘asi Boburiylar davlatining siyosiy markazlaridan biri hisoblangan. Akbar davrida qizil qumtoshdan bunyod etilgan mazkur qal‘a keyinchalik Shoh Jahon tomonidan oq marmar inshootlar bilan boyitilgan. Bu esa Boburiylar me‘morchiligida qurilish uslublarining bosqichma-bosqich takomillashib borganligini ko‘rsatadi.

Toj-Mahal bezaklarida diniy va madaniy bag‘rikenglik g‘oyalari ham o‘z aksini topgan. Gumbaz tepasidagi metall shpil hind va islom madaniyatlariga xos ramzlarni birlashtiradi. Unda hind an‘analaridagi “kalasha” timsoli hamda islom madaniyatidagi yarim oy belgisi uyg‘unlashgan. Shuningdek, gumbazning teskari lotos shaklida bezatilishi ham hind me‘moriy an‘analarining ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu jihatlar Boburiylar davrida turli diniy va madaniy an‘analarning o‘zaro uyg‘unlashganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Boburiylar davlatida ayollar ham muhim siyosiy va ijtimoiy mavqega ega bo‘lganlar. Mumtoz Mahal nafaqat hukmdorning rafiqasi, balki davlat ishlarida maslahatchi sifatida ham faoliyat yuritgan. Saroy ayollari ko‘pincha hukmdorlarning harbiy yurishlari davrida ma‘muriy vazifalarni bajarishgan. Shu sababli Toj-Mahalni faqat muhabbat timsoli sifatida emas, balki tarixda ayol shaxsiga bag‘ishlangan eng ulkan va nufuzli yodgorliklardan biri sifatida ham baholash mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Toj-Mahalning ahamiyati faqat tarixiy va me‘moriy jihatlar bilan cheklanmaydi. U tabiat, din, san‘at, siyosat va muhandislikning o‘zaro uyg‘unlashgan noyob namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Yamuna daryosi bo‘yida barpo etilgan murakkab poydevor tizimi, marmar qoplamalar va restavratsiya texnologiyalari yodgorlikning muhandislik jihatdan ham yuksak darajada yaratilganligini ko‘rsatadi. Bu esa Toj-Mahalni nafaqat madaniy meros obyektini, balki tarixiy muhandislik tafakkurining ham nodir namunasi sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Toj-Mahal jahon madaniy merosining eng noyob namunalaridan biri bo‘lib, u nafaqat me‘moriy yodgorlik, balki tarixiy, diniy, madaniy va tabiiy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan muhim obyekt hisoblanadi. Yodgorlik Boburiylar davri me‘morchilik san‘atining yuksak darajasini namoyon etib, qurilish texnologiyalari, bezak san‘ati va muhandislik yechimlari bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Koch E. The Complete Taj Mahal and the Riverfront Gardens of Agra. – London: Thames & Hudson, 2006. – Pp. 15–48.
2. Asher C.B. Architecture of Mughal India. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – Pp. 187–214.
3. UNESCO World Heritage Centre. Taj Mahal. – Paris: UNESCO Publications, 2023. – Pp. 1–12.
4. Nath R. Taj Mahal and Its Incarnation. – Jaipur: Historical Research Documentation Programme, 1989. – Pp. 54–96.
5. “Toj Mahal — muhabbat timsoli bo‘lgan go‘zal maqbara” // Islom tafakkuri. – 2025. – Maxsus son. – B. 15–18.
6. Sobirov J., Abdullayev M. “Bobur va boburiylarning Hindistondagi me‘morchiligi” // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2021. – № 5. – B. 8–15.
7. YUNESKONing Butunjahon merosi obyektlari haqida ma‘lumotlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, 2022. – B. 45–53.